



O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim,
fan va innovatsiyalar vaziri o‘rinbosari
S.Buzrukxonova

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlарining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”

2022-yil 12-yanvardagi PQ-81-son qaroriga muvofiq tasdiqlangan
chora-tadbirlar dasturining ijrosi yuzasidan
HISOBOT

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi PQ-81-son qaroriga muvofiq, vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashishda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va ushbu yo‘nalishda ishlarni manzilli va samarali tashkil qilishga qaratilgan qo‘sishimcha chora-tadbirlar dasutriga muvofiq (*03-23-84-son, 15.04.2024-y.*), quyidagilar amalga oshirildi:

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlарining samaradorligini reyting baholash tizimi bo‘yicha aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va ularning ushbu yo‘nalishdagi faoliyatini yaxshilash bo‘yicha 2024-yilning 4-aprel kuni vazirlikning tegishli boshqarma va bo‘limlari, hududiy boshqarma hamda oliy ta’lim muassasalarini mas’ul mutaxassislarini ishtirokida seminar-yig‘ilish tashkil etildi (*30-son bayonnomma, 04.04.2024-y.*).

Shuningdek, Vazirlikning 2024-yil 27-sentabrdagi 360-son buyrug‘i talablari asosida platformaga yuklash uchun zarur ma’lumotlarni taqdim etish bo‘yicha tegishli boshqarma va bo‘limlar hamda oliy ta’lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas’ullar tayinlandi. Bundan tashqari, 2024-yilning 5-dekabr kuni Vazirlikning 2024-yil 29-noyabrdagi 445-son buyruqlari talablari asosida platformaga yuklash uchun zarur ma’lumotlar bo‘yicha tegishli boshqarma va bo‘limlar hamda oliy ta’lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas’ullar bilan seminar tashkil etildi.

2. Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati; xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini tashkil qilish bo‘yicha yo‘riqnomasi; kontragentlarni tekshirishga oid yo‘riqnomasi; ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha yo‘riqnomasi; korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti; korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati haqidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish reglamenti; korrupsiyaviy xatti-harakatlar va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o‘tkazish bo‘yicha reglament; davlat xaridlarini o‘tkazish to‘g‘risidagi nizom singari ichki idoraviy hujjatlar Vazirlikning 2024-yil 8-oktabrdagi 369-son buyrug‘i bilan yangilandi.

3. Vazirlik nomenklaturasiga kiruvchi vakant lavozimlarga ishga qabul qilish (rotatsiya) to‘g‘risidagi ma’lumotlar, shuningdek manfaatlar to‘qnashuvi va korrupsiya holatlari bo‘yicha xabar berish mumkin bo‘lgan aloqa kanallari to‘g‘risidagi ma’lumotlar rasmiy veb-sayt hamda ijtimoiy tarmoq sahifalari orqali e’lon qilib borilmoqda (<https://gov.uz/oz/edu/paGES/bo-sh-ish-o-rinlari>, <https://t.me/eduuz/28403>, <https://t.me/eduuz/28306>, <https://t.me/eduuz/28016>, <https://t.me/eduuz/27930>, <https://t.me/eduuz/26960>, <https://t.me/eduuz/26685>). Xodimlarning mehnat shartnomalariga korrupsiyage qarshi shartlar kiritilib, vazirlik xodimlari imzosi bilan tasdiqlanmoqda. Shuningdek, Vazirlikning 2024-yil 10-oktabrdagi 374-son buyrug‘i bilan korrupsiya holatlari haqida xabar berish mexanizmi, xabar bergan xodimlarni rag‘batlantirish, ularning ta’qibga olinmasligi kafolati yaratildi.

4. Xodimlar tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyalarining to‘ldirilishi va ularni tahlil qilish amalga oshirilmoqda, shuningdek ishga qabul qilinuvchi nomzodlar ustidan tekshiruvlar o‘tkazilmoqda. Jumladan, hisobot davri mobaynida 1636 nafar nomzodga nisbatan tekshiruv o‘tkazildi. Tekshiruv natijalariga ko‘ra, 39 nafar nomzodlarning ishga olinishiga to‘sinqilik qiluvchi ma’lumotlar aniqlanmadи.

5. 2024-yil davomida jismoniy va yuridik shaxslardan vazirlikka umumiylis hisobda 99 ta murojaat kelib tushgan bo‘lib, ular hududlar kesimida quyidagicha ko‘rinishga ega: Qoraqalpog‘iston Respublikasi – 4 ta; Jizzax viloyati – 6 ta; Qashqadaryo viloyeti – 4 ta; Navoiy viloyati – 1 ta; Namangan viloyati – 3 ta; Samarqand viloyati – 9 ta; Surxondaryo viloyati – 14 ta; Toshkent viloyati – 7 ta; Toshkent shahri – 26 ta; Farg‘ona viloyati – 7 ta; Xorazm viloyati – 1 ta; Buxoro viloyati – 7 ta; Sirdaryo viloyati – 1 ta; Andijon viloyati – 6 ta; 1 ta murojaat anonim bo‘lib, qaysi hududdan kelganligi ma’lum emas.

Yo‘llangan yuqorida murojaatlarning 57 tasi bo‘yicha murojaat muallifiga tegishli tushuntirishlar berildi va 11 ta murojaatlar ijobjiy hal etildi. Shuningdek, murojaatlarning 14 tasi xududiy idoralarga yuborilgan hamda 9 tasi vazirlik va kolatiga kirmaganligi sababli, tegishliliqi bo‘yicha boshqa davlat idoralariga yo‘llangan. 9 ta murojaat anonim va takroriy bo‘lganligi uchun ko‘rmasdan qoldirilgan. Qolgan 7 ta murojaat o‘rganish jarayonida.

Kelib tushgan murojaatlarni o‘rganish natijasida keltirilgan vajlar o‘z tasdig‘ini topmaganligi ma’lum bo‘lgan.

6. 2024-yilning iyul va dekabr oylarida Huquqni muhofaza qilish akademiyasining eletkron platformali orqali vazirlik va uning huzuridagi tizim tashkilotlari, hududiy boshqarmalar hamda oliy ta’lim muassasalari xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish hamda manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar oshirildi.

Tizim tashkilotlari va oliy ta’lim muassasalari xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tayyorlash va qayta tayyorlashga oid “Korrupsiya – ogohlantirish va qarshi kurashish” (16 soatlik), “Kasbiy odob-axloq qoidalariga rioya etish, manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf qilish va korrupsiyaga qarshi kurashishning boshqa yo‘nalishlari” (24 soatlik) va “Oliy ta’lim muassasalarida komplaens nazorat tizimini boshqarish va korrupsiyaga qarshi kurashish” (24 soatlik) maxsus o‘quv dasturlari hamda “Korrupsiya – oliy ta’lim uchun yashirin tahdid!” va “Oliy ta’lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish” mavzularidagi qo‘llanmalar yaratildi.


7. Vazirlikning 2023-yil 2-iyundagi 242-son buyrug‘i bilan xodimlar tomonidan Davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo‘lgan sovg‘a qiymati, shuningdek uni tasarruf etish talablariga rioya etilish yuzasidan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

8. Vazirlik, tizim tashkilotlari va oliy ta’lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlariga doir tadbirlar ijtimoiy tarmoqlardagi sahfalar orqali hamda televediniye va boshqa ommaviy axborot vositalari orqali targ‘ib qilinmoqda.

Jumladan, 2024-yil mobaynida jami 18 041 marotaba turli mazmundagi targ‘ibot materiallari yoritilib, unda 190 503 nafar xodim, professor-o‘qituvchi, talabə-yoshlar hamda keng jamoatchilik qamrab olindi.

**Korrupsiyaga qarshi kurashish
bo‘limi boshlig‘i**

2025-yil “9”-yanvar.



M.Parmanov